



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 15-may, payshanba,
57 (24.083)-son

O'zbek xalq
maqoli

Erning
quti -
elida

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Jahon banki Kattaqo'rg'onda suv ta'minotini yaxshilashga ko'maklashmoqda



**Samarqand shahrida
“O'zbekistonda ichimlik
va oqova suv xizmatlari
barqarorligini oshirish”
mavzusida xalqaro konferensiya
o'z ishini boshladi.**

“O'zsuvta'minot” aksiyadorlik jamiya-
ti tomonidan Jahon banki va Shveysariya
hukumati ko'magida tashkil etilgan tadbirda
yurtimizdagi mazkur soha mas'ullari, xalqaro
moliya institutlari vakillari va ekspertlar,
investorlar ishtirok etmoqda.

Konferensiyada viloyat hokimi vazifasini
bajaruvchi Adiz Boboyev so'zga chiqib, suv
infratuzilmasini rivojlantirish aholi farovon-
ligini oshirish bilan birga mamlakat iqtisodiy

yo'ti barqarorligini ham ta'minlashga xizmat
qilishini ta'kidladi. Ayniqsa, bugun dunyoda
iqlim o'zgarishlari, toza ichimlik suvi global
muammoga aylanib borayotgan paytda
sohada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash,
suv resurslaridan samarali foydalanish dol-
zarb ahamiyat kasb etayotgani qayd qilindi.
Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-2024-yillarda
yurtimizda ichimlik va oqova suv sohasini
rivojlantirishga 27,5 trillion so'mdan ortiq
mablag' yo'naltirildi. Shundan 1 milliard
AQSh dollari xalqaro moliya institutlari
hissasiga to'g'ri keladi. Bu orqali 7,7 mil-
liardan ortiq aholi ilk bor markazlashgan
ichimlik suvi tarmog'iga ulanib, hayot sifati
sezilarli darajada yaxshilandi.

– “O'zsuvta'minot” AJ tomonidan o'nga
yaqin xalqaro moliya institutlari bilan ham-
korlikda umumiy qiymati 2,436 milliard

AQSh dollaridan ortiq 25 ta loyiha amalga
oshirilmoqda, – deydi “O'zsuvta'minot”
aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Ah-
mad Suvonqulov. – Jumladan, Jahon ban-
ki bilan umumiy qiymati 310 million AQSh
dollariga teng 4 ta loyiha hayotga tatbiq
etilmoqda va hozirda Qoraqalpog'iston
Respublikasi, Sirdaryo va Samarqand
viloyatlarida 47 million dollarlik uchta
loyiha amalga oshirilyapti. Samarqandda-
gi loyiha Kattaqo'rg'on shahri aholisining
ichimlik va oqova suv ta'minotini yax-
shilashga qaratilgan.

Konferensiyada O'zbekistonda suv
infratuzilmasining joriy holati va islohotlar
jarayoni, xalqaro moliya institutlari bilan
amaldagi va istiqbolli hamkorlik loyihalari,
davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlari va
yangi tashabbuslar muhokama qilinmoqda.

15-may - Xalqaro oila kuni



**Uzoq yillar xotin-qizlar qo'mitasi sifatida
faoliyat ko'rsatgan tashkilot bir necha yildan
beri oila va xotin-qizlar qo'mitasi sifatida
ish boshlashi bejiz emas. Sababi ayol ham,
qizlar ham oilada, ularga yordam ko'rsatish,
muammosini tinglashda bevosita shu oilaning
ham dardini bilish juda muhim. Ilgari tizim faqat
xotin-qizlarga yordam ko'rsatish imkoniga
ega bo'lgan. Farzandi bemor yoki turmush
o'rtog'i og'ir vaziyatga tushib qolgan bo'lsa,
unga ko'mak ko'rsatishga haqqimiz bo'lmadi.
Endilikda umuman boshqacha tizim yaratildi.
“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning
nafaqat o'zlari, balki oilasidagi muammolari ham
o'rganilmoqda.**



Farovon oila sari

To'g'ri, bugun tizimda bir qaraganda, juda ko'p
imtiyozlar asosan xotin-qizlar uchun ajratilayotganday.
Ammo bu yordamlarning deyarli barchasi oilaning faro-
vonligiga, oila a'zolarining salomat bo'lishiga qaratilgan.

Bu yil nizoli oilalar bilan ishlash, yosh nikohlanuv-
chilarni yangi metodologiya asosida hayotga tayyor-
lash uchun kompleks xizmatlarni ko'rsatuvchi “Oila va
xotin-qizlar maskanlari” faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.
Yil oxirigacha shunday maskanlar barcha shahar va
tumanlarda ochiladi.

15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan
10-maydan 10-iyungacha qadar yurtimizda “Farovon oila
sari” oyilgini o'tkazish belgilandi. Oylik doirasida ma-
halla, tashkilot, ta'lim muassasalarida ibratli oilalar
tajribasini ommalashtirish, oila institutini mustahkam-
lashga qaratilgan tanlovlar o'tkaziladi. Shuningdek,
oilaviy turizm, oilaviy sport musobaqalari o'tkazilishi
rejalashtirilgan.

Bu yil ikkinchi yildirki, mamlakatimizda namunali oila
vakillariga “Ibratli oila” ko'krak nishoni topshirilmoqda.
Viloyatda ham yuzdan ziyod oila ushbu e'tirofga sazo-
vor bo'ldi.

Shuningdek, oylik davomida istirohat bog'larida
oilalar sayillari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**Zebo SAIDOVA,
viloyat hokimi o'rinbosari -
oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i.**

Mahalla raisi saylovi: Tartib, jarayon va natija

Mamlakatimizning bosh-
qa hududlarida bo'lgani singari
viloyatimizdan ham 1-maydan
fuqarolar yig'inlari raislarining
saylovi boshlandi.

Jarayon Samarqand shahrida
aholining faolligi va shaffoflik bilan
tashkil etilmoqda.

Shahardagi 25 ta mahallada
o'tgan saylovlarda 24 nafar amaldagi
rais yana shu vazifaga saylandi.

Hazora mahallasida saylov
jarayonlari “Fuqarolar yig'ini raisi
saylovi to'g'risida”gi Qonun talablari
asosida o'tazildi. Rais lavozimiga
boy hayotiy tajribaga ega, aholi
o'rtaida hurmat-e'tiborga sazovor
bo'lgan, bilimdon, adolatli, ko'pni
ko'rgan, mahalla ahlini xayrli ish-
larga ergashtira oladigan, tashab-
buskor, tashkilotchilik qobiliyatiga
ega uch nafar nomzod ko'rsatilgan
edi. Belgilangan tartibga ko'ra, say-

lov jarayoniga mahalla aholisining
140 nafardan ortiq vakili taklif etilib,
ovoz berish jarayonida ularning
120 nafari ishtirok etdi. Yashirin
ovoz berish orqali amaldagi rais
Abbos Ahmedov yana o'z vazifasiga
saylandi.

Fuqarolar yig'inlari raislari say-
lovini tashkil etish va o'tkazishga
ko'maklashuvchi viloyat komis-
siyasidan olingan ma'lumotlarga
ko'ra, shu paytgacha viloyatimizda
232 ta mahallada fuqarolar yig'ini
raisi saylovi o'tkazilib, 612 nafar
nomzod orasidan 232 nafari ma-
halla raisi etib saylangan.

Raislarning 45 nafari birinchi
marta saylangan. 15 nafari ayol-
lar, 16 nafari deputatlarni tashkil
etadi. Sifat tarkibi bo'yicha 217
nafari oliy, 15 nafari o'rta maxsus
ma'lumotga ega.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

**Samarqand shahridagi Sharq
mahallasida joylashgan Imom Moturidiy
yodgorlik majmuasini qayta ta'mirlash
va obodonlashtirish ishlari olib
borilayotgani sababli shu hududda
joylashgan 240 ta aholi xonadonlarini
ko'chirish ishlari davom ettirilmoqda.**

- Majmuani kengaytirish maqsadida mahallamizda
joylashgan 100 dan ziyod xonadon egalariining roziligi
bilan ko'chirish ishlari olib borilmoqda, – deydi Sharq
mahallasi raisi Baxtiyor To'xtamurodov. - Uy egala-
riga o'zlari xohlagan hududdan uy-joylar ajratilmoqda
yoki bozor narxlarida puli berilmoqda.

Shuningdek, ko'chirish ishlari majmua atrofida
joylashgan Dari Zanjir, Fidoyilar, Zomini va Yomini
mahallalarida ham olib borilmoqda.

Hududda “Hududgaz Samarqand” gaz ta'minoti
filiali, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ viloyat filiali,
“Samarqand suv ta'minoti” AJ kabi kommunal xo'ja-
lik tashkilotlari xodimlari loyihalar asosida tabiiy gaz,
elektr energiyasi, ichimlik suvi hamda internet aloqa
tarmoqlarini ko'chirish ishlari olib bormoqda.

Bugungi kunda qadim Chokardiza qabristonining
2,5 gektarga yaqin hududda joylashgan Imom Motu-
ridiy majmuasi qurilish-ta'mirlash ishlari davom etib, 4,5

Imom Moturidiy majmuasi kengaytmoqda

gektar joyni egallashi ko'zda tutilgan.

- Loyihaga ko'ra, majmua butun dunyo mu-
sulmonlari kelib ziyorat qiladigan yirik qadamjoga
aylanadi, – deydi “Madaniy meros LITI” MChJ bosh
direktori Jahongir Rahmonov. – Dastlab maqbara
to'liq ta'mirdan chiqariladi. Shuningdek, bu yerda yuz
kishilik katta ayvon, erkak hamda ayol namozxonlar
uchun masjid, 120 kishiga mo'ljallangan tahoratxo-
na quriladi. Ikki katta minora, 137 ta avtobus va yengil
mashina sig'adigan avtoturargoh, 2 ta favvorali hovuz
quriladi. Yangi quriladigan ilmiy markazda kutubxona
va majlislar zali joylashadi. Shuningdek, ming tup
manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazilib, bog' yaratiladi.

Majmuada bir nechta kichik ayvonchalardan tash-
qari, estalik sovg'alar va kitoblar do'konlari, shuning-
dek, maxsus kushxona ham barpo etiladi.

Imom Moturidiy ziyoratgohi rahbari Ulug'bek
Alimovning aytishicha, shu vaqtgacha Malayziya,
Indoneziya, Turkiya, Rossiya davlatlaridan ziyoratchi-
lar kelgan bo'lsa, endilikda Suriya, Jazoir, Misr va



Iroqdan ham mehmonlar soni oshmoqda. Ayni paytda
ham majmua ziyoratchilar uchun ochiq.

Qurilish-ta'mirlash ishlari joriy yil yakunigacha
tugashi ko'zda tutilgan.

**Dilmurod TO'XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

**Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev Oqdaryo tumanida ta'lim
tizimi xodimlari bilan uchrashdi.**

**Viloyat rahbari dastlab ta'lim har qanday jamiyatning asosiy poydevori
ekanini ta'kidlab, islohot va o'zgarishlarni quyi bo'g'indan, ya'ni
maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash kerakligini ta'kidladi.**

Ta'lim sohasida qanday muammo va kamchiliklar bor?



- Bugungi kunda viloyatda bolalarning
bog'chaga qamrovi 74,3 foizni tashkil
etib, respublikada 12-o'rindamiz, -
dedi A.Boboyev. – Bu past ko'rsatkich
bo'lib, Nurobod, Urgut, Kattaqo'rg'on,
Samarqand tumanlarida qamrov dara-
jasining ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha
ko'rsatkichdan ham past. Shuningdek,
viloyatdagi bog'chalarda 23 ming 817 ta
bo'sh o'rin mavjud, lekin shu paytgacha
ulardan maqsadli foydalanilmagan.

Uchrashuvda pedagoglar salohiyati
va ta'lim sifati ham tanqidiy baholandi.
Qayd etilishicha, viloyatdagi 61 ming 536
nafar pedagogning 26 ming 558 nafari
(43 foiz) toifaga ega emas. 2024-yilda
attestatsiyaga jalb etilgan o'qituvchi-
lardan 18 ming 383 nafari yetarli ball
to'play olmagan bo'lsa, 3045 nafar
o'qituvchining toifasi tushirilgan. O'tgan
o'quv yilida viloyat bo'yicha 1268 ta
maktabni 47 ming 728 nafar bitiruvchi
tugatib, 11029 nafari yoki 23,1 foiz grant
va to'lov shartnoma orqali oliy ta'lim
muassasalariga qabul qilingan. Biroq 26
ta maktabning birorta ham bitiruvchisi
davlat OTMlariga o'qishga kirmagan.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan
uchrashuvda ta'lim sifatini oshirish,
o'quvchilarning bilim darajasini yax-
shilash, o'qituvchilarning kasbiy maho-
ratini rivojlantirish, tizimdagi muammo-
larga yechim topish, ta'lim muassasalari
infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy
o'quv-tarbiya usullarini joriy etish va
o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga oid
taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Samarqand shahridagi 6-umumta'lim
maktabining matematika fani o'qituvchi-
si, O'zbekiston xalq o'qituvchisi Feruza
Gafarova tizimni raqamlashtirish orqali
qilingan yangiliklar o'zini oqlamayotgani-
ni yashirib o'tirmadi.

- Maktabda ishlaganimga 40 yildan
oshdi, – deydi Feruza Gafarova. - Oldin
o'qituvchi o'zi darsga tayyorlanib, keyin
o'quvchiga bilim berardi. Hozir esa na
ish reja, na konspekt yozadi. Bularning

barchasi elektron tizimga o'tgan. Hatto
o'quvchilarni ham telefonda baholaydi.
Rostini aytaman, keyingi paytda o'qituv-
chilarning asosiy ishi 45 daqiqa bolalarga
bilim berish emas, platformaga vaqtida
kirib, o'quvchini baholash bo'lib qoldi.
Endi internet yetib bormagan maktablar-
da jarayonni tasavvur qilavering. Ushbu
raqamlashtirish jarayonini qayta ko'rib
chiqish lozim deb o'ylayman.

- Hozirgi kunda umumta'lim maktab-
larida o'qiyotgan iqtidorli o'quvchilar
ixtisoslashtirilgan, xususiy maktablarga
saralanyapti yoki o'z xohishi bilan bosh-
qa nufuzli ta'lim muassasasiga o'tyapti,
– deydi Payariq tumanidagi 23-maktab
direktori G'ayrat Mahamatov. – Tabiiyki,
bu holat maktabda ta'lim sifatining tushi-
shiga olib kelmokda. Maktablarda ushbu
muammoga yechim topish, ta'lim sifa-
tini yaxshilash va oliy ta'limga qamrovni
oshirish maqsadida iste'dodli o'quvchilar
uchun maxsus sinflar tashkil etish kerak.
Yana bir muammo - hozir aksariyat
o'qituvchilar ta'lim tizimidagi zamonaviy
texnologiyalar, jumladan, elektron
doskalaridan haligacha foydalanishni bil-
maydi. Maktablarda shu yo'nalishda ham
pedagoglarning bilimini oshirish, malakali
mutaxassislarni jalb qilish zarur.

Uchrashuv davomida bildirilgan fikr-mu-
lohzalar oliy ta'lim muassasalari mas'ullarini
ham bafarq qoldirmadi. Jumladan, O'zbekis-
ton-Finlandiya pedagogika instituti rektori
Shahzoda Negmatova maktab direktorlariga
qaysi yo'nalishda pedagoglar bilan bog'liq
muammolar bo'lsa, murojaat qilishlari va
kadrlar yetkazib berilishini ma'lum qildi.

Shuningdek, o'qituvchilarni tanlov asosida
ishga olish, pedagogika oliy ta'lim muas-
sasalari huzurida pedagoglarni tayyorlash
kursini tashkil etishni taklif qildi.

Viloyat hokimi har bir murojaat va
taklifni eshitib, soha mas'ullari va oliy
ta'lim muassasalari rahbarlariga ta'lim si-
fatini yaxshilash, tizimda malakali kadrlar
tayyorlash bo'yicha yo'l xaritasi ishlab
chiqish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi yalpi yig'ilishida 1994-yildan boshlab 15-may kunini Xalqaro oila kuni deb belgilash to'g'risida rezolyusiya qabul qilingan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo jamoatchiligini oiladagi muammolarni bartaraf etish va oila qadriyatlarini mustahkamlashga qaratishdir. Mamlakatimizda ham ushbu sana bir necha yillardan beri nishonlanib kelinmoqda. Xo'sh, boshqa mamlakatlarda qanday? Oila masalasida olib borilayotgan ishlar ko'lamini nechog'lik? Ushbu savollarga javob topish maqsadida Turkiya Respublikasining Samarqanddagi bosh konsuli Salih JANER bilan suhbatlashdik.

O'zbek va turk oilalarining o'xshashligi bor

-Mazkur sana Turkiyada ham nishonlanadimi? Va umuman, oila atalmish qo'rg'onning mustahkamligi yo'lida mamlakatda qanday tuzilmalar ish olib boradi?

-Albatta, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan qaror doirasida har yili 15-may Xalqaro oila kuni sifatida Turkiyada ham nishonlanadi. Sababi bugungi kunda jamiyatning poydevori bo'lgan oila institutining ahamiyati globallashuv, ijtimoiy platformalar va hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan texnologik o'zgarishlar tufayli yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, oilaning ahamiyatini takidlash va bu borada olib borilayotgan ishlarni jadal-lashtirish maqsadida Prezident Rejep Tayyip Erdo'g'an tomonidan Turkiyada 2025-yil "Oila yili" deb e'lon qilindi. Turkiyada oilaviy va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish va muvofiqlashtirish Oila va ijtimoiy xizmatlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi va ayollarning bu masalalarga bo'lgan nuqtai nazari va ona sifatidagi nozikliklari tufayli ushbu vazirlik vazirining ayol kishi bo'lishi afzal ko'rilgan.

-Vazirlikning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat? Uning ishlash mexanizmlari haqida ham aytib bersangiz.

-Vazirlik tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida aytishim mumkinki, oila mustahkamligi, yoshlarni oila qurish va mustahkamlashga rag'batlantirish masalasida qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2024-yil 15-maydagi qarori bilan "Oilani muhofaza qilish va mustahkamlash bo'yicha (2024-2028-yillar) istiqbolli hujjat va harakatlar rejasini" e'lon qilingan edi. Ushbu hujjatni yaratish uchun Turkiyaning barcha 81 viloyatida maxsus ishchi guruhi tashkil etilib, 15480 xonadonga tashrif buyurildi, ularning muammolari o'rganildi, takliflari eshitildi.

Prezidentimizning qarori bilan bolalar, yoshlar, ayollar, erkaklar, nogironlar va keksalar hamda ularning oila azolariga yanada samarali va standartlashtirilgan xizmatlar ko'rsatish maqsadida "Oila instituti" tashkil etildi.

Tug'ilish ko'rsatkichlari keskin pasayishining oldini olish va milliy aholi siyosatini yaxlit yondashuv bilan yaratish va amalga oshirish uchun aholi siyosati kengashi tashkil etilgan va kengash raisligi vitse-prezident janob Jevdet Yilmaz tomonidan yuritilmoqda. "Ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitlarning oilaga tasiri bo'yicha tadqiqot" loyihasi ishga tushirildi va tadqiqot ishlari hamon davom etmoqda. Ya'ni, bugun butun dunyoda ijtimoiy tarmoqlar va umuman, xalqaro "o'rgimchak to'ri"ning ta'siri oilalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu masalalarni o'rganishni nazarda tutadi. Shuningdek, favqulodda holatlarda ham mazkur vazirlik oilalarga yordam ko'rsatadi. Misol uchun, Turkiyada 2023-yilda yuz bergan zilzila



oqibatida jami 5 milliondan ortiq kishiga psixo-ijtimoiy yordam xizmati ko'rsatildi.

-Turkiyada oilalar uchun alohida imtiyozlar ham bormi?

-Keyingi yillarda mamlakatda tug'ilish ko'rsatkichining biroz pasayganini hisobga olib, oilalarga qator imtiyozlar, moddiy rag'batlantirishlar taqdim etilmoqda. Xususan, "Yoshlarning turmush qurishini qo'llab-quvvatlash" loyihasi bilan arizalari maqullangan shaxslarga ikki yillik imtiyozli davr bilan va 48 oylik foizsiz kredit olish imkoniyati taqdim etildi.

Qolaversa, 2025-yil 1-yanvardan boshlab har bir oilaga mezonlardan qati nazar, birinchi tug'ilgan farzand uchun o'zbek valyutasi hisobi bilan aytganda bir martalik 1 million 700000 so'm, ikkinchi farzand uchun har oy 500000 so'm, uchinchi farzand uchun har oy 1 million 700000 so'm miqdorida yordam puli to'lanishi belgilandi. Ilgari bunday imtiyozlar faqat kam ta'minlangan oilalar uchun mavjud edi. Hozir har bir oilaga shunday moddiy rag'batlantirishlar belgilandi.

-Mana, to'rt yildirki Samarqandda istiqomat qilasiz. Turk va o'zbek oilalaridagi o'xshashliklar nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?

-Bilishimcha, O'zbekistonda ham Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, joylarda uning bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi. Alohida takidlash kerak, turk va o'zbek oilalarida qator o'xshashliklar bor. Deylik, bizda ham farzand 18 yoshga to'lganidan so'ng darhol alohida yashashi ko'pam ma'qullanmaydi, oilalarda kat-talarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatilishi yoshlikdan tarbiya orqali singdiriladi. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi tarixiy, qardoshlik va madaniy aloqalar tufayli oilaning jamiyatdagi ahamiyati va yaxlitligi o'xshashdir. Ikki qardosh davlat ijtimoiy siyosatining asosini milliy qadriyatlar va oilani muhofaza qilish tashkil etadi va bu masalalar prezidentlarimiz tomonidan himoya va nazorat qilib borilmoqda. Bu tabiiy, chunki oila bu bizning osoyishta maskanimiz, tayanchimiz va katta hayot yo'liga qadam qo'yishimizda madadkor oshyonimizdir. Oilada ishda sarflagan kuchimizni qayta tiklaymiz, vaqtini maroqli o'tkazib, ruhiyatimizni mustahkamlaymiz.

-Suhbatingiz uchun tashakkur.

Gulruh MO'MINOVA
suhbatlashdi.

Pedagoglar attestatsiyadan “gaplashib” o'tyaptimi?

Har yili pedagoglar attestatsiyasi atrofida sodir bo'ladigan gap-so'zlar nafaqat ushbu soha vakillarini, balki boshqalarni ham o'ylantiryapti, imtihon jarayonining shaffofligiga shubha uyg'otyapti. Haqiqatan ham attestatsiyada birovning o'rniga boshqasi kirib, test savollarini yechib bera oladimi? X-variant tarqab ketgani rostmi? Bu yilgi attestatsiya jarayonlari o'tgan yillardagidan nimasi bilan farq qiladi? Shu kabi savollarga javob topish maqsadida Samarqand shahridagi Bilimlarni baholash markazida bo'ldik.

Markazning kirish qismida kutish zali bo'lib, attestatsiya imtihoniga kelgan pedagoglar navbati kelguniga qadar shu yerda o'tirishi, test sinovlariga tayyorlanib turishi mumkin. Test sinovlari jarayoniga kirishdan oldin pedagoglar dastlab ro'yxatdan o'tishi, telefon, sumka kabi buyumlarini tashqarida qoldirishi kerak. Keyingi bosqichda ichki ishlar xodimlaridan iborat gu-ruh xotin-qizlarni alohida, erkak o'qituvchilarni alohida tekshiruvdan o'tkaziyapti. Tekshiruvdan o'tgan o'qituvchilar test sinovlariga kiritilyapti.

BIROVNING O'RNIGA IMTIHONGA KIRISH MUMKINMI?

-Shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan imtihonga kirgan pedagog testda qatnashishi uchun avval monitorda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqam (JShShIR)ini teradi, so'ngra Face ID dasturi chiqadi, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining pedagoglarning bilim va ko'nikmasini baholash shu'basi boshlig'i Latif Karimov. - Ushbu dastur orqali monitor pedagogning yuzini tanib olgach, ekranda savollar paydo bo'ladi. Bu yerda inson omili aralashmaydi. Agar biron kishi boshqa pedagogning o'rniga kirib, JShShIRini tersa, monitorda "Bu shaxs bunga tegishli emas", degan yozuv chiqadi. Tabiiyki, begona shaxsga test savollari ham berilmaydi.

Ikkinchidan, har bir kompyuterda kamera joylashtirilgan. Agar pedagog yon tarafga qarab gaplashsa, har xil harakatlar qilsa, monitordan uzoqlashsa, unga ogohlantirish xati keladi. Uch marta ogohlantirish olgan pedagogning imtihoni avtomatik ravishda to'xtatiladi. Dastur shunday ishlab chiqilganki, bu jarayon inson omilisiz amalga oshiriladi.

O'QITUVCHILARGA OLDINDAN SAVOLLAR BERILADIMI?

O'qituvchilarga oldindan savollar berilmaydi, balki mavzular beriladi. Qaysi mavzuda savollar tuzilgan bo'lsa, o'sha mavzular ro'yxati vazirlikning rasmiy telegram sahifasida e'lon qilinadi. Masalan, matematika o'qituvchilari uchun "kvadrat tenglama" degan mavzu tushishi mumkin. Aynan mana shunga o'xshash savollar tushadi, degan savollar varianti yo'q.

Test savollarining 40 tasi fanga oid va 10 tasi pedagogik mahoratdan tuzilgan bo'lib, har bir to'g'ri javobga 2 ballidan beriladi. Testni yechish uchun aniq fanlarga 2 soat, tabiiy fanlarga 1,5 soat vaqt belgilangan.

Demak, ikkinchi malaka toifasi uchun pedagog 60 baldan 69 balgacha, birinchi malaka toifasi uchun 70 baldan 79 balgacha, oliy toifa uchun 80 ball va undan yuqori ball to'plashi lozim.

Xalqaro tan olingan sertifikat bor o'qituvchiga attestatsiya jarayonida fanga oid 40 ta savol uchun 80 ball beriladi. U qolgan pedagogik mahorat bo'yicha beriladigan savollarni ishlab chiqadi.



BU YILGI ATTESTATSIYADA QANDAY YANGILIKLAR BOR?

-Bu yilgi pedagoglar attestatsiyasida yaxshi yangilik bor, - deydi Latif Karimov. - Vazirlar Mahkamasining qarori asosida navbatdan tashqari va navbatdagi attestatsiya jarayonida qatnashib, 86 va undan yuqori ball olgan o'qituvchilarga 70 foiz ustama beriladi. Shuning uchun har yilgiga nisbatan bu yil pedagoglari-miz ko'proq navbatdan tashqari hujjat asosida attestatsiyaga qatnashyapti. Navbatdan tashqari hujjat topshirganlar 337500 so'm to'lovni amalga oshiradi. Agar pedagog testdan yuqori ball to'plasa, birinchidan, toifasi oshadi va toifasi oshgani uchun maoshi ham ko'tariladi. Ikkinchidan, yana unga qo'shimcha 70 foizli ustama to'lanadi. Bu haqda har bir tumanda seminar tashkil qilib, pedagoglarga ushbu yangilikni tushuntirganimiz. Joriy yilda viloyatda 24075 nafar pedagog attestatsiya jarayonida qatnashish uchun hujjat topshirgan. Ularning 5 foizi navbatdagi attestatsiyadan o'tkazilsa, qolgan navbatdan tashqari, ya'ni o'zlari xohlab attestatsiyada ishtirok etyapti.

PEDAGOG YIL DAVOMIDA MALAKA TOIFASINI OLISHI MUMKIN

Endi nafaqat pedagoglar attestatsiya jarayonida malaka toifasini qo'lga kiritadi, balki ularning yutuqlariga ham toifa beriladi. Masalan, agar pedagog magistraturani tugatsa, unga ikkinchi malaka toifasi, ilmiy ish (PhD) qilsa, oliy toifa beriladi. O'quvchilari sport musobaqalarida g'olib bo'lgan o'qituvchilarga ham malaka toifasi beriladi. Sport musobaqalarida o'quvchi tuman bosqichida faxrli o'rinni olsa, o'qituvchiga 2-toifa, o'quvchi viloyat bosqichida faxrli o'rinni olsa, o'qituvchiga 1-toifa, respublika bosqichida g'olib bo'lsa, o'sha fan o'qituvchisiga oliy toifa beriladi.

Bundan tashqari, ish staji 25 yil yoki undan yuqori bo'lgan, yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'lmagan pedagoglarga to'g'ridan to'g'ri amaldagi malaka toifasi beriladi, ya'ni ular attestatsiya jarayoniga jalb qilinmaydi. Masalan, oliy toifali, 25 yil stajga ega o'qituvchi pensiya yoshiga 5 yildan kam qolgan bo'lsa, u pedagog.uz sayti orqali hujjat topshiradi. Platformada uning ish staji va boshqa ma'lumotlari jamlangach, unga oliy toifa beriladi.

"IJTIMOIY TARMOQLARDAGI VIDEO UYUSHTIRILGAN"

-Attestatsiya jarayonini hamma onlayn ko'rishi mumkin, - deydi pedagoglarning bilim va ko'nikmasini baholash shu'basi boshlig'i. - Siz istasangiz, kompyuterda yoki telefonda imtihonni kuzatishingiz, shuningdek, onlayn translyatsiyani ekranda to'xtatib qo'yishingiz mumkin. Imtihondan yiqilib chiqqan ayrim o'qituvchilar onlayn translyatsiyani avval to'xtatib qo'yishgan, so'ngra imtihondan chiqqan yigitni monitor ol-

dida videoga olishgan. E'tibor bersangiz, video to'xtab turibdi. Bu jarayon shunchaki alamzada pedagoglar tomonidan uyushtirilgan.

ATTESTATSIYANI PUL BILAN "GAPLASHIB" MUMKINMI?

-Bir o'qituvchimiz o'ziga ishonmagani uchun attestatsiyani pul bilan olmoqchi bo'ldi, - deydi o'qituvchilardan biri. - Rosa "gaplashib"ning imkonini qidirdi, topolmadi. Hamma o'zi o'qishi kerak ekan. O'zim 1-toifali o'qituvchiman, attestatsiyaga oliy toifa olish uchun kelgandim. Afsuski, bor-yo'g'i 58 ball to'pladim. Savollari maktab darsligidan tuzilmagan, ko'proq mantiqiy savollar ekan. Shuning uchun rosa qiy-nalidim. Test sinovi jarayonida qatnashib, birov boshqasiga yordam berib bo'lmasiligiga guvoh bo'ldim.

-Maktabda o'z faoliyatimni boshlaganimga ikki yil bo'ldi, - deydi Urgut tumanidagi 60-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo fani o'qituvchisi Eldor Abdullayev. - Bilimimni sinash maqsadida navbatdan tashqari attestatsiyada ishtirok etish uchun hujjat topshirgan edim. Bugun attestatsiya jarayonida qatnashib, mutaxassislikdan ikkinchi malaka toifasini oldim. Test savollarining 60 foizi mantiqiy fikrlashga undaydigan, 40 foizi esa kimyoviy tenglamalardan tuzilgan masalalar ekan. Imtihonga darslik kitoblardan va mavzular bo'yicha mustaqil tayyorlandim.

-O'zim oliy toifali o'qituvchiman, o'tgan yili ham navbatdan tashqari attestatsiyaga qatnashib, bilimimni sinab ko'rgandim, - deydi To'loq tumanidagi 57-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi Akmal Mansurov. - Bu yil ham navbatdan tashqari attestatsiyaga kelib, 90 ball to'pladim. Savollarga qiynalganim yo'q, sababi doim o'z ustimda ishlayman. Darsdan keyin o'quvchilarga repetitorlik ham qilaman. Faqat pedagogik mahoratdan biroz tayyorlandim. Yaqinda uchinchi marta vazir jamg'armasi imtihonining birinchi bosqichidan o'tdim. Shuningdek, milliy sertifikatga ham egaman. Agar vazir jamg'armasining suhbatidan o'tsam, oliy toifa, milliy sertifikat hammasini qo'shganda taxminan 20 million so'm atrofida maosh olsam kerak. O'z ustida muntazam ishlaydigan o'qituvchiga bugun barcha imkoniyatlar bor, shuningdek, yuqori ish haqi ham.

Attestatsiya jarayonidagi gap-so'zlarga kelsak, test sinovlari mutlaqo shaffof tarzda o'tyapti. Imtihonni "gaplashib" ham, birovning o'rniga kirib ham olib bo'lmaydi. Hatto imtihonda kompyuter ustidagi video sizni vaqti-vaqti bilan rasimga olib turadi. Jarayonni o'z ko'zim bilan ko'rganim uchun mish-mishlarga ishonmayman. Pedagoglarga ham faqat o'z bilimlari-ga ishonishni maslahat beraman.

Xurshida ERNAZAROVA,
"Zarafshon" muxbiri.

Bulung'urdagi

qurilishi nihoyasiga yetmoqda



Yaxshi bilamiz, Bulung'ur tuman markaziga borishda shu hududdan o'tgan temir yo'l tufayli ba'zi noqulayliklar kuzatilardi. Yo'ni, poyezd o'tadigan paytda shlagbaza tushirib qo'yilardi. Natijada avtomobillar turnaqator yig'ilib, bunday navbatning uzunligi ancha uzoq masofaga cho'zilib ketardi. Bu muammoning yechimi sifatida shu yerda avtomobil tonneli qurilishi kerakligi haqidagi takliflar inobatga olinib, loyiha ishlab chiqildi. Ayni paytda bu maskanda ishlar qizg'in. 80 milliard so'mlik loyiha 65 milliard so'm miqdordagi ishlari bajarilibdi. Demak, yaqin orada Bulung'ur tumani markaziga kirish muam-mo bo'lmaydi.

-Kengligi 16 metr ushbu avtomobil tonneli birinchi navbatda transport qatnovi uchun qulaylik yarata-di, - deydi "Farovon yo'l servis" MChJ ish boshqaruvchisi Iskandar Mo'ynov. - Shuningdek, loyihaga ko'ra, tunnel yonidan piyodalar va velosiped yo'lak-lari qurilishi rejalashtirilgan. Chunki poyezd o'tish vaqtida bu yerda nafaqat transport vositalari, balki piyodalar ham o'tolmay ancha payt qolib ketadi.

Ayni paytda 70 dan ortiq ishchi 30 ga yaqin texnika yordamida tunnel qurilishi jadal olib borilmoqda va obyektni shu yil foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

G.KOMILOVA.

Бир қарашда оддий кун, оддий манзара. Кутилмаган ҳеч нарса йўқдек туюлади. Аммо мана шу оддий автобусда гувоҳ бўлган ҳолатлар юрагимда оғрик, онгимда эса оғир саволлар қолдирди: биз қаерга қараб кетяпмиз? Қачондан бошлаб жамоат жойларида ўзимизни бунчалар эркин, ўзгаларнинг ҳуқуқини поймол қиладиган даражада тута бошладик?

Ҳар куни ишга автобусда қатнайман. Доимгидек автобуста чиқиб, ўртоққа ўтиб, ўриндиққа ўтирдим. Навбатдаги бекатда автобусга ёшгина бир қиз чиқди. Шунчаки чикмади, балки бутун автобусга “кириб келди”. Унинг қўлидаги телефондан чиққан сериал товуши гўё ораимизда эмас, қулоқларимизнинг ичида янграётгандек эди. Қиз эса гўё бу дунёда ёлғиз ўзи яшаётгандек, кўзи телефондан узилмас, ёши катта инсонлар чиққанида ҳам ўрнидан туриш у ёқда турсин, атрофига бир назар ташлаб қўйишни ҳаёлига келтирмасди.

Яқинда яна бир ҳолатга дуч келдим. Бу сафар ёши каттароқ она қўл телефонида баланд овозда ким биландир оилавий муаммоларини гаплашаётган эди. “Ўша, ўғлимнинг келини менга жавоб қайтарибди...”, “Сен биласан-ку, акиси ҳам шунақа...”, деган сўзлар бутун

Жамоат жойида ўзни тутиш маданиятини унутдикми?

автобус бўйлаб акс-садо берарди. Шахсий ҳаёт бутун жамоатчиликка тақдим этилаётган спектаклга айланиб қолганди.

Қизик, одамлар қачондан ижтимоий ҳис-туйғулардан бу даражада йироқлашди? Қачон маданият деган тушунча “овозни пастроққа тушириш” каби оддий одатлардан ҳам узилиб қолди?

Юракни энг кўп ўртаган воқеа бу эмас эди. Автобусда кетаётиб, ёнимда турган хорижлик талабанинг телефонда инглиз тилида гаплашаётган, гап орасида телефонга автобус ташқарисидаги манзарани тасвирга олиб: “Қара, бу маданиятсизларни”, деганини тушуниб қолдим. У белгиланмаган жойдан йўл кесиб ўтаётган пидедаларни тасвирга олиб, ажабланиб, ҳатто бироз кинояли тарзда танишига кўрсатмоқда эди.

Бир юрт фарзанди, ўз халқини ҳимоя қилгиси келади, аммо ҳолатни инкор этолмайди. Кўзимизга оддий туюлаётган ҳар бир ҳаракат, ҳар бир бепарво-



тарбия, товуш эмас, тавозе, қиёфа эмас, қиёфадаги фазилат, бир сўз билан айтганда, маънавиятли онг, ҳушёр юрак керак, назаримда.



Шоҳиста МАМАСОЛИЕВА
Ўзбекистон-Финландия педагогика
институты ўқитувчиси.

Vasiyat – bu fuqaroning o‘ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda, tasarruf etish xususidagi xohish-irodasidir. Hayotiy vaziyatlar g‘oyatda xilma-xil bo‘lishini hisobga olib, qonunchiligimizda uni tasdiqlash bo‘yicha bir qator qulaylik va imkoniyatlar belgilangan.

Vasiyatnoma maxfiy bo‘lishi ham mumkin

Xususan, vasiyatnomani notariusdan tashqari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi tegishli bo‘limining vakolatli shaxsi (notarius yo‘q bo‘lgan punktlarda), shifoxonaning bosh vrachi, uning davolash bo‘yicha o‘rinbosari yoki navbatchi vrachi, qariyalar uyining direktori yoki bosh vrachi, O‘zbekiston bayrog‘i ostidagi kemanding kapitani, ekspeditsiya, harbiy qism, ozodlikdan mahrum etish joyi, tergov hibsonasi boshlig‘i tasdiqlashi mumkin. Shu holatda ushbu mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomaning hamda uni o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladigan hujjatning bittadan nusxasi vasiyat qiluvchi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joydagi idoraviy notarial arxivga saqlash uchun kechiktirmay yuborilishi shart.

Notarius vasiyatnomani

o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida ariza olgan taqdirda vasiyatnomaning notariusda saqlanayotgan nusxasiga belgi qo‘yadi va tizimga bu xususda ma‘lumot kiritadi. Vasiyatnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida ariza notarial idorada yuritiladigan bitimlarni bekor qilish to‘g‘risidagi alohida yig‘majidda saqlanadi.

O‘z navbatida vasiyatnomaning turlari ham bor. Masalan, shartli vasiyatnoma merosxo‘rlar uchun muayyan shartlarni belgilashi mumkin. Vorislik huquqi ularda faqat ushbu shartlar bajarilganidan keyin paydo bo‘ladi. Merosxo‘rni tayinlash yoki vorislik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi farmoyishiga kiritilgan g‘ayriqonuniy shartlar haqiqiy bo‘lmaydi. Vasiyatnomaga kiritilgan bo‘lib, merosxo‘r o‘z salomatligining ahvoliga ko‘ra yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli bajar

olmaydigan shartlar merosxo‘rning da‘vosi bo‘yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Shuningdek, fuqarolar maxfiy vasiyatnoma tuzishi mumkin. Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi ostida o‘z qo‘li bilan yozishi va imzolashi lozim. Vasiyatnoma ikki guvoh va notarius ishtirokida xatjildga solinib, xatjild yelimlanishi zarur, guvohlar o‘z familiyalari, ismlari, otalarining ismini va doimiy turarjoylarini ko‘rsatgan holda xatjildga imzo qo‘yadilar. Uning mazmuni faqat vasiyat qiluvchining vafotidan keyin ma‘lum bo‘ladi.

Suxrob NASIMOV,
Samarqand shahrida
xususiy amaliyot
bilan shug‘ullanuvchi
notarius stajyorlari.

ishladi.

Профессор М.Сафин ўзининг илмий-педагогик фаолиятида биокимё ва молекуляр биология соҳасининг илмий-назарий жиҳатдан асосланишига ҳисса қўшиб, 280 дан ортиқ илмий-услубий ишлар, жумладан, 3 та дарслик, 10 га яқин ўқув-услубий қўлланмалар, 3 та монография ва 150

га яқин илмий мақола чоп эттирган. Олим “Биокимё” ва “Молекуляр биология” фанларидан тайёрлаган ўқув адабиётлари, модул-электрон мажмуа ва мавзулар тақдимотлари билан кафедра ва факультетда ўқув жараёнининг услубий жиҳатдан таъминиланишига салмоқли ҳисса қўшди.

Профессор М.Сафин университет профессор-ўқитувчилари, талабалари ўртасида ўзаро ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик тамойилларига асосланган соғлом мухитни шакллантириш, ташкilotчилиги ва талабчанлиги орқали университет жамоасида обрў қозонди.

Устознинг хотираси ҳамиша фарзандлари, жамоамиз ва шогирдлари қалбида сақланади.

Самарқанд давлат
университети қошидаги
Биокимё институти жамоаси.

TANLOVDA QATNASHING!
SamDTU pediatriya ishi fakulteti nevrologiya kafedrasiga assistent lavozimiga (1 o‘rin) tanlov e‘lon qilinadi.

Talabgorlar tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- Rektor nomiga ariza.
 - Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha so‘rov-noma.
 - Oliy ma‘lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
 - Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro‘yxati.
 - Malaka oshirganligi to‘g‘risidagi sertifikat.
- Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hakimova Ig‘ora Hikmatovna notarial idorasida marhum Boyburiyev Muradulla Tadjiyevichga (2024-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hakimova Ig‘ora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Toxtayev Raxmonga (2023-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirnova notarial idorasida marhum Usmanov Nurillo Xushvaxtovichga (2011-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirnova

notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum El-murodova Muhabbatga (2024-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko‘chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Karimov Xamrakul Bazarovichga (2022-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Raximova Zaynab Baratonvaga (2024-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G‘iyosiddin o‘g‘li notarial idorasida marhum Rustamova Kimiya Sabirovnaga (2024-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hasanov Aloviddin G‘iyosiddin o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Инсонлар бор ўз ҳаёти мазмунини эл юртига хизмат қилиш, уларнинг мушкуллари енгил қилиш, ўздан кейин муносиб шогирдлар қолдириш каби эзгу ишларда кўради. Бахтиёр Нуралиев ана шундай инсонлардан бири.

Яхшилик - инсон умрининг зийнати

У 1956 йилнинг 18 майида Паст Дарғом тумани Боғонали маҳалласида туғилган. 1973 йилда тумандаги 31-мактабни аъло баҳоларга битириб, Қарши қишлоқ хўжалик техникумида ҳисобчи ихтисослиги бўйича ўқиди, ҳарбий хизматни ўтади. Шундан сўнг халқ хўжалигининг турли соҳаларида ҳисобчилик қилди. 1989-1991 йилларда вилоят халқ таълими бошқармасида ҳисобчи-тафтишчи лавозимида ишлаш билан бирга, Тошкент халқ хўжалиги институтини молиячи-иқтисодчи мутахассислиги бўйича сиртдан тамомлади.

1992 йилдан 2018 йилгача Молия вазирлигининг вилоят бўйича назорат-тафтиш бошқармасида турли лавозимларда меҳнат қилди. Бахтиёр ака устозлари А.Худойбердиев, А.Қулмирзаев, У.Йўлдошевлардан касбий маҳорат сирларини ўрганиш бораборида ўзи ҳам кўплаб шогирдларга устозлик қилди. Мен ҳам иш жараёнида Бахтиёр акадан тафтишнинг кўп усуллариини ўрганганман. Давлат бюджети ва бюджетдан ташқари маблағлардан тўғри ҳамда мақсадли фойдаланиш шитдан назорат қилишдаги хизматлари учун бир неча марта вазирлик, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг фахрий ёрлик, ташаккурномалари билан тақдирланган.

Бахтиёр ака нафақага чиққач, ўзи туғилиб ўсган қишлоғида қишлоқ врачлик пункти ўрнида янги замонавий тилдаги бино қурилишида фаол қатнашиб, халқ саломатлигини тиклаш, тиббий хизматлар сифат даражасини оширишдек муҳим ишга катта ҳисса қўшди. Яна унинг олиб-югу-



риши натижасида тумандаги “Эски Анҳор” каналдан С.Маллаев фермер хўжалиги ҳамда Боғонали маҳалласида яшовчи аҳоли томорқаларига 3500 метрлик канал қазилиб, сув келтирилди. Ҳозирда ҳамқишлоқлар ушбу канални “Бахтиёр бобо ариғи” дейишади.

Боғонали маҳалласидаги артезиан қудугини таъмирлаш, ички йўللарни асфальтлаш ишларига ҳам ҳиссасини қўшди. 1-мактабнинг ота-оналар кенгаши раиси сифатида Б.Нуралиев ташаббуси билан мактабга 120 ўринли 4 та қўшимча синф хонаси ҳамда спорт зал қурилди.

Б.Нуралиев турмуш ўртоғи Зарғул Исмаева билан 3 нафар фарзандни эл-юртга хизмат қиладиган инсонлар қилиб тарбиялади. Ҳозир 11 нафар набираларининг таълим-тарбияси билан машғул.

Устоз ҳозир ҳам Юқори Боғонали маҳалласида нуруонилай ва кексаларни қўллаб-қувватлаш гуруҳи раҳбари сифатида маҳалладаги ободонлаштириш, тўй-маъракаларни ихчамлаштириш каби эзгу ишларни давом эттирмоқда. Устоз ҳамкасбимни қутлуг 70 ёши билан табриклаб, унга оилавий хотирjamлик, сихат-саломатлик тилайман.

Ҳақберди ҲУСАНОВ.

РЕКЛАМА, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

МАРС САФИН

МАРС САФИН Самарқанд биокимё фани оғир жудоликка учради. Самарқанд давлат университети қошидаги Биокимё институти одам ва ҳайвонлар физиологияси ва биокимё кафедраси профессори Марс Габдулҳақович Сафин 86 ёшида вафот этди.

Марс Сафин 1939 йилда Ан-



дижон вилояти Балиқчи туманида туғилган. 1959 йилда ўрта мактабни битириб, Самарқанд давлат университетининг биология-кимё факультетига ўқишга кирди. 1964 йилда ўқини тугатиб, шу университетда аспирантурада таҳсил олди. Икки йил Самарқанд қишлоқ хўжалиги институтида ассистент, 1972 йилдан Самарқанд қоракўлчилик илмий-текшириш институтида лаборант бўлиб ишлади. 1979 йилдан 1992 йилгача Самарқанд давлат педагогика институти одам анатомияси ва физиологияси кафедрасида ассистент, ўқитувчи, катта ўқитувчи, биология кафедраси мудири, доценти лавозимларида меҳнат қилди. 1992 йилдан фаолиятини Самарқанд давлат университетида давом эттириб, одам ва ҳайвонлар физиологияси ва биокимё кафедраси доценти, ўқув жараёнини назорат қилиш инспекцияси бошлиғи, кафедра мудири лавозимларида

Катта-кичик давраларда филология илми хусусида сўз борганда кўпчилик В.Абдуллаев, У.Турсунов, Н.Шукуров, Б.Валихўжаев, Х.Дониёров, Б.Ўринбоев, Р.Кўнғуров каби устозларнинг номини миннатдорчилик ва соғинч билан тилга олишди. Бугунчи? Бугун шу устозлар даражасига яқин издошлари борми?

Факт ва статистикага қарайдиган бўлсак, кечагидан кўра ҳозир илмий унвонлару даража соҳиблари кўп. Бироқ, сифат ва самарадорлик ундай эмасдек. Беҳисоб унвону даражалар кун ўтказишга, рўзгор тебратишга, умргузаронлик қилишга сарф бўлаётгандек. Тўғри, бу фақат биздамас, бутун дунёда гуманитар йўналишларга эътибор пастроқлиги билан ҳам белгиланар. Давримизнинг етук файласуфларидан бири Эрих Фромм "Озодликдан қочиш" асарида Ғарбу Шарқда мавжуд тузум ва тизимлар истеъмолчилар ва ижрочилар армиясини юзага келтирганлигини таъкидлайди. Таълим тизимимизда чўқур ислохотлар кечаётган бир пайтда устозларимизнинг илму маърифатга йўғрилган ҳаёт ва ижод

Илму маърифатга йўғрилган умр



мақоласи" сарлавҳали материал эълон қилинади. Унда Нуриддин Шукуровнинг "Ўзбек поэзияси ҳақида ўйлар" мақоласига катта баҳо берилди.

Адабиётшунос 1960 йил ёқланган "Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати" номзодлик диссертациясида шоир ижодини комплекс ўрганган. Бу тадқиқотда бошқа адабиётшунослардан фарқли ўлароқ, Ғафур Ғуломнинг ютуқлари билан бирга илк ижодий изланишларидаги камчиликларни ҳам кўрсатиб ўтади. Жумладан, шоир асарларида бадий мазмун, поэтик ғоя, композиция, вазн ва тилдан фойдаланишдаги маҳорати шундай нозик дид билан деталлаштириб ўрганилганлигини Ғафур Ғуломнинг ўзи ҳам катта қониқиш

билан эътироф этади.

Нуриддин Шукуров адабий жараёнда фаол иштирок этиб, 300 дан ортқ мақолалар эълон қилди. Ҳозирги шеърият поэтикасига бағишлаб ёзилган туркум мақолалари қизгин баҳс-мунозараларга сабаб бўлган эди. Бугунги кунда ҳам уларни филология йўналишида таҳсил олаётган талабаларга илмий назарий қўлланма сифатида бемалол тавсия этиш мумкин. Бу эса икки тузумни бошдан кечирган гуманитар соҳалар учун жуда катта ютуқдир. Чунки орада кўп сувлар окди, замон ўзгарди, адабиётшуносликда тадқиқ усуллари ўзгарди, адабий жараён янгиланиб бормоқда, лекин адабиётшунос ўзбек адабиёти тадқиқи орқали

баён этган илмий концепция бугун ҳам ўз долзарблигини сақлаб келиши чиндан ҳам муаллифнинг катта иқтидор соҳиби бўлганлигини далиллайди.

Эътибор қилинса, кўплаб олимларнинг ютуғи улар тадқиқот олиб борган тор ихтисосликлар ҳисобига тўғри келади. Нуриддин Шукуров илмий ишларининг қамров доираси эса ниҳоятда кенг эди: шеърият, наср, драматургия, адабиёт тарихи, назарияси, танқиди, таржимонлик, журналистика...

Нуриддин Шукуров истеъдодининг яна бир қиррасини қамтарилиги боис тирикчилигида чоп этмаган шеърияти ташкил этади. "Хушнуд" тахаллуси билан ижод қилиб, санокли шеърларигина вақтли матбуотда чоп этилган. Нуриддин Шукуров шеърларида масаланинг моҳиятига фалсафий ёндашиш, бугун ва кечани параллел идрок этиш орқали эрта хусусида фикр юритиш, арзимасдек туюлган кундалик, ҳаётий ҳодисалардан кучли умумлашма чиқариш жиҳатлари билан файласуф шоир Ғафур Ғулом поэтик услубига яқинлик сезилади.

Нуриддин Шукуровнинг Ш.Воҳидов, М.Жўракулов, Б.Валихўжаев, Р.Кўнғуров каби қатор тендош ва садошларига атаб ёзган мувашшаҳ шеърларида дўстлар қувончини ўз шодлигидек қабул қилган лирик шахснинг хушнудлик кайфиятлари кўринса, Улуг Турсун, Воҳид Абдулла, Мухтор Вали, Хусайн Ризо, Худойберди Дониёров,

Ҳамдам Бердиёров, Илҳом Ҳасанлар фироқи лирик "мен" қалбидан аламнок мисралар ила силқиб чиқади.

Нуриддин Шукуров асос солиб кўп йиллар раҳбарлик қилган "Шалола" ижодий тўғараги турли йилларда Омон Матжон, Тошпўлат Аҳмад, Дилбар Саидова, Асад Дилмурод, Ўткир Раҳмат, Фармон Тошев, Илҳом Ҳасан, Карим Бахриев, Фахриёр, Нодир Жонузок, Ориф Тўхташ каби шоир ва ёзувчиларни кашф қилган эди. Таржимонлик фаолияти туфайли эса ўзбек китобхоналари Р.Ҳамзатов, А.Баҳорий, М.Қаноат асарларини ўз тилларида ўқийдилар.

Ҳеч бир алломоу унвондор раҳбарларни қамситмаган ҳолда устоз табиатида мўқим бўлган айрим фазилятларини эътироф этиш зарур. Нуриддин Шукуров талабчан эди – бу талабчанлиги замирида инсонга ғамхўрлик ётарди, миллатпарвар эди – бу миллатсеварлиги ўзга миллатларни ҳурмат қилиш туйғусига пайваст эди, илмда, ижодда, кундалик ҳаётда баркамолликка интиларди – бу баркамоллик Шарқ шеърияти асрлар давомида қўйлаб келган комил инсон тўғрисидаги орзуларга ҳамоҳанг эди. Табиатида эзгу ният, эзгу сўз, эзгу амал устувор эди. Юриш-туриши, кийиниши, муомаласи, ички ва ташқи маданияти билан кўпларга ибрат бўлди, одамийлик илмидан сабоқ бериб келди. Ва шу хислатлари билан устозлиқнинг, олимликнинг, одамийликнинг тимсоли бўлиб хотирамизда сақланиб қолди.

Шавкат ҲАСАНОВ,
филология фанлари доктори,
профессор.



“Қалбимизга сўзга асир бўлмоқни раво кўрди”

Хосият БОБОМУРОДОВА - Хатирчида туғилиб ўсган. Қишлоғидаги мактабда математикадан сабоқ берган. Аммо бу иқтидор соҳибаси Самарқанд адабий муҳитида камол топди, қалами қайралди ва эндиликда мамлакатга таниқли адиба бўлиб танилди. "Зарафшон" газетасида ҳам фаолият кўрсатди. Кейинчалик Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Навоий ҳамда Самарқанд вилояти бўлимларини бошқарди. Ҳамкасбимизни шукрона қуни билан табриклаймиз ва ижодидан намуналарни эътиборингизга ҳавола этамиз.

Толемига Самарқандда яшаш бахтини берган Аллоҳга шукрлар бўлсин! Ер юзининг исталган нуқтасида "Мен самарқандликман!", деб мағрур айтишга ҳаққим бор!

Аллоҳ қалбимизга сўзга асир бўлмоқни раво кўрди. Ва, барча юракларни сўз билан асир этмоқни буюрди.

Яхшини яхши деб ҳамиша айтиш мумкин. Ёмонни ёмон деб айтиш учун ёмонга айланишинг керак.

Агар кунлар дўст бўлса, орамизга суқилиб қирмасди. Кунба кун сендан мени узоклаштирмасди.

Менга сени топиб берган ўша йўлларда яна адашсаядим... Ўша адашиш учун дунёга яна қайтиб келса бўлади.

Сангзордаги харсангга "жоним", деб ёзилган. Дилига ишқ тутатса, тошга ҳам жоним деб айтаркан-а?!

Ўзингни, гурурингни, қадрингни йўқотишга розимисан, ўт, ўтақол ишқинг оstonасидан.

Яна қачонгача чидайсан, чидам?!

Менинг юким енгилдир, энг оғири кўнгилдир.

Йўғлаганим уларга ёқмас, уларнинг қулгани менга ёқмайди.

Энг ёмони ёнингдаги душманингга сен ёмонсан, деб айтолмаслик.

Қалбингни бировга бериш - ихтиёрий қулликка рози бўлиш.

Шунча бахтиёрликдан сўнг қандай йўғлайин?

ВАТАН СЕВГИСИ

Гоҳ дўст деб юрганинг ёвинг бўларкан, Қармоғингда қайғу – овинг бўларкан, Фақат Ватан Асқар товинг бўларкан, Сени севмай яшаб бўлурми, Ватан!

Минг бир дардининг давоси гиёҳларинг, Ташлаб кетар бўлсанг, йўқдир оёқларинг, Ўзавсанг, тугамаса сиёҳларинг, Сени севмай яшаб бўлурми, Ватан!

Кўкка қўйсанг моҳи тобонларимни, Чаман этсанг дашту ёбонларимни, Ўпиб турсанг ахир товоңларимни, Сени севмай яшаб бўлурми, Ватан!

Сенсиз жойим борми, уйлар қурмоққа, Сенсиз ҳаддим борми, тўйлар қилмоққа, Сенсиз бахтим борми, даврон сурмоққа, Сени севмай яшаб бўлурми, Ватан!

ВАТАН СОТИЛМАС

Шоҳини, кимхобни, бўзни сотарлар, Энг муқаддас неъмат – тузини сотарлар, Тенгини топсалар, қизни сотарлар, Ватан сотилмайди, Ватан сотилмас.

Ошиқлар ишқ учун эркини берар, Нодонлар қўшқ учун қурқини берар, Кўнгил деган гўзал арқини берар, Ватан берилмайди, Ватан берилмас.

Юраги юпунлар иймонни сотар, Бошин йўқотганлар замонни сотар, Душманига оту қамонни сотар, Ватан сотилмайди, Ватан сотилмас.

Дунё бу, отасиз ўсар минг сағир, Онасиз қон бўлар қанча қон бағир, Етим ўстирмоқлик бўлса-да оғир, Ватан ташламайди, Ватан ташлама.

Подшоҳлар ватан деб қўп тадбир кўрган, Сўлх учун мол - мулк, қўй - қўзини берган. Етмас, синглиси, қизини берган, Ватан сотилмаган, Ватан сотилмас!

Менда жон қолдими, ҳолингни кўриб, Қўшилиб инграйди мингбир жон толам. Ёшини яшаган мен онанг туриб, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Мен бахтни кутгандай кутганман сени, Тўлғоқларни енгиб тутганман сени, Қил кўприқдан олиб ўтганман сени, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Кетдим сен томон, гирёна бўлганча, Зор-зор йигларман, парвона бўлганча, Тош бўлсам бўлмасми, она бўлганча, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Ниҳолларим омон ўссин-да, эркам, Офатлар йўлини тўссин-да, эркам, Тоғ бўлиб, тўфонни кессин-да, эркам, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Оғриқлар жисмингдан ёмон ўтади, Мени босиб, сўнг сен томон ўтади, Битса ҳамки, мендан ҳамон ўтади, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Оғриса, итларнинг боши оғрисин, Манманларнинг қибр тоши оғрисин, Ҳасаднинг кўзию қоши оғрисин, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

Боряпман уйингга, қулиб чиқ бир бор, Қасалнинг бошига илиб чиққин дор, Ортингда тоғинг бор: мен бор, отанг бор, Сенинг жонинг нега оғрийди, болам?

ЮРАККА

Яхшиям тўрт девор орасидасан, Дарча очолмайсан бир умр мушглаб, Қирқ йил ғам ичсанг ҳам норасидасан, Қетолмайсан сира йўрғагинг ташлаб.

Яхшиям билмайсан шаробнинг тотин, Ҳар лаҳза ичганинг қон ва яна қон. Деворларга сингиб кетади додинг, Дук-дук урмоғингдан йўқ бошқа имкон.

Яхшиям занжирбанд бўлгансан абад, Чиқмайсан вужуднинг хос хонасидан. Қилдай эркинг бўлса, келардим топиб, Ҳар саҳар Мажнуннинг оstonасидан.

МЕНИНГ ВАҚТИМ ЙЎҚ ЭДИ, ОНА

"Бир пасгина ёнимда ўтир, Бир кунгина ётиб кет, қизим" Атрофимда айланиб гир-гир, Тақроларди онам шул сўзин.

Бу гал дердим, юрагим тошиб, Энди келсам, қоламан, эна... Шафқати йўқ бу кунлар шошиб, Мени олиб кетарди яна.

Топганини тугунча қилиб, Қўлларимга тутқазар эди. Мени зўрға бағридан юлиб, Машинага ўтқазар эди.

Базмларга топар эдим вақт, Шеър ўқирдим ёна ва ёна. Давраларни билар эдим бахт, Сизга вақтим йўқ эди, она.

Сиз – тоғимни чўктириб қўйиб, Кетар эдим тоққа, далага. Сизга азоб чектириб қўйиб, Яйрар эдим яшил далада.

Кечиксам, иш кечирмас эди, Койинарди кечиксам уйим. Давраларнинг чиқарди дуди, Фақат онам кутар эди жим...

Шаън давралар кетдилар тарқаб, Байрамлари менсиз ҳам обод. Гоҳ дардларим йиғилар қоп-қоп, Ёлғизликдан солгим келар дод.

Шундай ғамлар бўлар эканки, Тушунмаскан онангдан бошқа. Тингламайди сени бировлар, Бошларингни урсанг ҳам тошга.

Қабрингизга чопаман бот-бот, Сўзлашай деб қона ва қона. Сўрамайсиз ҳолимни хайҳот, Энди Сизда вақт йўқдир, она!

СЎЗ СЕҲРИ

Ким ким билан, билмадим, Мен сўз билан курашдим. Гоҳи олов бўлди ул, Гоҳ муз билан курашдим.

Гоҳи олиб забтима, Осмонларда ой бўлдим. Нон тутгандек кафтинда, Мен ҳаммадан бой бўлдим.

Учдим қанотларида, Етдим Кўхи Қофларга. Елиб гиротларида, Ёр келди жон тобларга.

Ичиб шаробларидан, Маст бўлдим, аласт бўлдим. Ёвларим қолиб кетиб, Ёр дилига қасд бўлдим.

Ёниб аллалар айтдим, Бешиқларнинг бошида. Вужуд сувдай эриди, Ғудогимнинг қошида.

Гўдакми, сеҳрми бу, Бағримда о, на, дедим! Қучоқда палапоним, Сийнам кучиб, она деди!

О, тотингдан айланайин, Сўзни енгдим, эриб кетдим.

Гулгунчамнинг қучоғига Нурлар каби кириб кетдим!

...Бир кун тобут бошида, Чархлар уриб бўзладим. Ёрилади ёрилтош, Мен боламини изладим.

Осмондаги бўз тўғай, Мени кўриб бўзлади. Фарёдидан юз тўғай, Пастлаб учди, тизлади.

Нимта – нимта юракни, Сўз бўлди, нетардим. Айтолмайин дардимни, Гунглар бўлиб ўтардим.

Сўзидир менинг дугонам, Ҳам сирдошим, ҳам синглим. Ҳам боламу ҳам онам, Гоҳ бут, гоҳ ярим кўнглим.

Сўз – менинг ўтган умрим, Сўз – жоним асраган жон! Дилимда йўлбарс каби Ҳайқириб турган Ватан!

Енгсам, сўз меникидир, Енгилсам, сўзиникиман. Енгдимми, енгилдимми, Билолмасман мен ҳамон...

Бугун таниқли ёзувчи ва шоир, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган журналист Абдусайд Қўчимов таваллуд топган кун.

Ушбу QR кодлар орқали ижодкор ҳақида маълумот, шеърлари ҳамда Абдусайд Қўчимов сўзи билан Анвар Санаев ижро этган "Мени тушун" қўшиғини тинглашингиз мумкин.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 624 nusxada chop etildi. Buyurtma 230. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LOMLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda